




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



2020-yilda asosiy kapitalga 2144,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 80,9 % jalb qilingan mablag'lar, 19,1 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ta'minlandi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar:



Respublika byudjeti:
69,0 mlrd. so'm



Hukumat kafolati ostidagi
chet el kreditlari:
294,9 mlrd. so'm

Markazlashtirilmagan investitsiyalar:



Aholi mablag'lari:
266,9 mlrd. so'm



Korxonalar mablag'lari:
448,8 mlrd. so'm



Bank kreditlari va
boshqa qarz mablag'lari:
330,1 mlrd. so'm



To'g'ridan-to'g'ri va boshqa
xorijiy investitsiyalar va
kreditlar: 734,5 mlrd. so'm




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi quyidagicha taqsimlandi – hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar– 13,8 % ni, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar–34,3 % ni, aholi mablag'lari–12,4 % ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari–15,4 %, korxonalar mablag'lari, mahalliy byudjet va homiy rezident mablag'lari–20,9 % ni, Respublika byudjeti–3,2 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (umumiy hajmdagi ulushi,%)





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari


	Mrd. so'm	O'sish sur'ati, %	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari	2144,2	65,2	100,0
Respublika byudjeti	69,0	69,1	3,2
Homiy rezident mablag'lari	3,9	-	0,2
Mahalliy byudjet mablag'lari:	35,8	-	1,7
O'zbekiston Respublikasi kafolati bilan chet el kreditlari	294,9	31,0	13,8
Korxonalar mablag'i:	409,1	108,8	19
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	330,1	85,5	15,4
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar	734,5	724,2	34,3
Aholi mablag'lari	266,9	142,3	12,4



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI




Asosiy kapitalga investitsiyalar tumanlar kesimida
mlrd. so'mda






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari Chust tumanida kuzatildi, ularning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning rivojlanishi Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 37,7 % o'zlashtirildi, keyingi o'rinda To'raqo'rg'on tumanining ulushi 15,8 % ni tashkil etdi.



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko'ra qurilish-montaj ishlari 817,2 mlrd. so'mga yetkazildi, asbob-uskunalar va jihozlar 1213,7 mlrd. so'mga, boshqa kapital ishlar va xarajatlar esa 113,3 mlrd. so'mga yetdi.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Asosiy vositalarga investitsiyalarning qurilish montaj ishlari, mlrd. so'mda





Asosiy kapitaldagi investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1410,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu jami investitsiyalarning 65,8 % ini tashkil etdi.

Mavjud ob'ektlarni rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishni kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 602,3 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 28,1 % ini tashkil etdi. Qolgan 6,1 % yoki 131,8 mlrd. so'm boshqa sohalarga yo'naltirildi.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida noishlab chiqarish sohasi yetakchilik qilmoqda. Ushbu sohada barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 674,3 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 31,4 % o'zlashtirildi. Uy-joy qurilishi umumiy qiymati 192,0 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmning 9,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, % da






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


Asosiy kapitalga kiritilgan to'gridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va kreditlari

Shahar va tumanlar	2019-yil yanvar-mart mlrd. so'mda	2020-yil yanvar-mart oylarida mlrd. so'mda	2019-yilga nisbatan % da
Namangan viloyati	88,3	474,8	5,4 m.
Namangan sh.	31,8	171,4	5,4 m.
tumanlar:			
Mingbuloq	45,5	2,1	4,6
Kosonsoy	-	-	-
Namanagan	0,4	96,2	240 m.
Norin	-	11,0	-
Pop	5	39,5	7,9 m.
To'raqo'rg'on	2	30,3	15,1 m.
Uychi	1,6	10,8	6,8 m.
Uchqo'rg'on	-	17,2	-
Chortoq	1,8	-	-
Chust	0,2	82,8	414 m.
Yangiqo'rg'on	-	13,5	-

Qurilish obyektlari



Uy-joy qurilishi ming kv.m





NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 197,0 ming kv.m bo'lgan 1383 ta uy-joy qurilishi amalga oshirildi, shu jumladan, qishloq joylarda 132,9 ming kv.m bo'lgan 906 ta uy-joy qurib bitkazildi.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Mas'ul:

B. Tursinov

Telefon:

(69) 226-84-85